

O'ZBEKISTON RESPUBLIKA BOJXONA XIZMATI ORGANLARIDA KIBERXAVFSIZLIK MASALALARI

Rafikova Muattar Ravshanovna

*Bojxona instituti "Ijtimoiy-gumanitar
fanlar" kafedrasi boshlig'i, pedagogika fanlari bo'yicha
falsafa fanlari doktori(PhD), dotsent, podpolkovnik*

Bobomurodov Asilbek Alibek o'g'li

Bojxona instituti 1-kursanti

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 17.01.2026

Revised: 18.01.2026

Accepted: 19.01.2026

KALIT SO'ZLAR:

*axborot tizimi
xavfsizligi,
hamkorliklar,
kelajakdagi rejalar,
kiberxavfsizlik sohasida
o'qitish*

Maqolada kiberxavfsizlik tushunchasi, uning ahamiyati va zamonaviy axborot jamiyatidagi o'rni, kiberxavflarning turlari, ularning oqibatlari hamda axborotni himoya qilishning asosiy usullari tahlil qilinadi. Shuningdek, O'zbekiston va jahon tajribasi misolida kiberxavfsizlikni ta'minlashga doir chora-tadbirlar ham ko'rib chiqilgan.

Bugungi globallashtirish davrida kiberxavfsizlik butun dunyo miqyosida eng muhim strategik yo'nalishlardan biriga aylandi. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan birga, kiberxavfsizlik masalalari ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Raqamli texnologiyalar, internet va sun'iy intellektning jadal rivojlanishi bilan bir qatorda, kiberjinoyatlar, ma'lumotlar o'g'irlanishi, firibgarlik va zararli dasturlar orqali hujumlar ham ortib bormoqda.

BMT, Yevropa Ittifoqi, NATO kabi xalqaro tashkilotlar kiberxavfsizlikni global darajada muvofiqlashtirish uchun maxsus strategiyalar ishlab chiqmoqda. Masalan, Yevropa Ittifoqining Kiberxavfsizlik agentligi (ENISA) Yevropa mamlakatlarida axborot tizimlarini himoyalash va xavfsizlik standartlarini joriy etish bilan shug'ullanadi. AQShda esa Cybersecurity and Infrastructure Security Agency (CISA) milliy infratuzilmani himoya qiladi. Shuningdek, Xalqaro Telekommunikatsiya Ittifoqi (ITU) tomonidan kiberxavfsizlik bo'yicha xalqaro reyting va ko'rsatkichlar ishlab chiqilgan. Unga ko'ra, Janubiy Koreya, Singapur, AQSh va Buyuk Britaniya dunyodagi eng yuqori kiberxavfsizlik darajasiga ega davlatlar sifatida e'tirof etilgan. Umuman olganda, kiberxavfsizlik jahon hamjamiyatining

barqaror rivojlanishi va axborot suverenitetini saqlashda hal qiluvchi omilga aylanmoqda. Shu bois, har bir mamlakat o'z milliy kiberxavfsizlik siyosatini mustahkamlash bilan birga, global hamkorlikni kengaytirishga intilmoqda.

O'zbekistonda kiberxavfsizlik so'nggi yillarda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Axborot texnologiyalarining keng joriy etilishi, elektron hukumat, raqamli iqtisodiyot va onlayn xizmatlar rivojlanishi bilan bir qatorda, axborot makonini himoya qilish zarurati ortib, davlat miqyosida kiberxavfsizlikni ta'minlash bo'yicha qator huquqiy va tashkiliy choralar amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 15-apreldagi "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi O'RQ-764-son qonuni qabul qilinib, mazmuni unda milliy axborot tizimlari va infratuzilmani himoyalashning asosiy yo'nalishlari belgilandi. Shuningdek, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida kiberxavfsizlikni mustahkamlash, malakali mutaxassislarni tayyorlash va xalqaro standartlarni joriy etish vazifalari belgilab qo'yildi.

Mazkur sohada muhim rol o'ynaydigan tashkilotlardan biri – "O'zbekiston kiberxavfsizlik markazi" bo'lib, u davlat axborot resurslarida xavfsizlik monitoringini amalga oshiradi, kiberhujumlarni aniqlash va ularga qarshi choralar ko'rish bilan shug'ullanadi. Shuningdek, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi (ATKR vazirligi) ham bu yo'nalishda muvofiqlashtiruvchi organ hisoblanadi. O'zbekiston xalqaro miqyosda ham faol hamkorlik qilmoqda – ITU, CIS, va UNESCO kabi tashkilotlar bilan birgalikda kiberxavfsizlik siyosatini takomillashtirish, xalqaro tajribani o'rganish ishlari olib borilmoqda. Shuningdek, mamlakatda axborot xavfsizligi bo'yicha ta'lim yo'nalishlari kengaytirilmoqda, Oliy ta'lim muassasalarida "Kiberxavfsizlik", "Axborot xavfsizligi" kabi mutaxassisliklar ochilgan. Umuman olganda, O'zbekistonda kiberxavfsizlik milliy xavfsizlikning muhim tarkibiy qismi sifatida e'tirof etilib, davlat va jamiyatning raqamli rivojlanishini ishonchli himoya qilishga xizmat qilmoqda.

Kiberxavfsizlik — bu axborot texnologiyalari, kompyuter tizimlari, tarmoqlar va ma'lumotlarni ruxsatsiz kirish, zarar yetkazish, o'g'irlash yoki buzilishlardan himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasidir. U axborot resurslarini himoya qilish bilan birga, davlat, tashkilot va fuqarolarning raqamli xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi [1].

Zamonaviy jamiyatda barcha sohalar — iqtisodiyot, ta'lim, sog'liqni saqlash, bank tizimi, hatto mudofaa sohasi ham raqamli texnologiyalarga asoslangan. Shu sababli kiberxavfsizlik — bu nafaqat texnik, balki ijtimoiy va huquqiy ahamiyatga ega tizimdir. Kiberxavfsizlikning asosiy maqsadi — axborotning maxfiyligi, yaxlitligi va mavjudligini ta'minlashdan iborat. Ya'ni ma'lumotlar faqat ruxsat etilgan foydalanuvchilar tomonidan ko'rilishi, o'zgartirilmasligi va kerakli paytda mavjud bo'lishi kerak.

Bojxona xizmati organlarida kiberxavfsizlik masalasi bugungi kunda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Chunki bojxona organlari faoliyati to'liq axborot texnologiyalariga asoslangan bo'lib, barcha ma'lumot almashinuvi, tovarlar harakati, deklaratsiyalarni qayd

etish va nazorat jarayonlari elektron shaklda amalga oshiriladi. Shu sababli bu tizimni kiberhujumlardan himoya qilish — milliy xavfsizlikning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bojxona axborot tizimlarida davlat chegaralari orqali o'tuvchi tovarlar, transport vositalari, shaxsiy ma'lumotlar, moliyaviy hisob-kitoblar va xalqaro savdo ma'lumotlari jamlanadi. Ushbu ma'lumotlarning ruxsatsiz o'g'irlanishi yoki o'zgartirilishi nafaqat iqtisodiy xavf tug'diradi, balki mamlakat xavfsizligiga ham tahdid soladi.

O'zbekiston Respublikasi Bojxona qo'mitasi tomonidan kiberxavfsizlikni ta'minlash yo'nalishida quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda:

Axborot tizimlari va elektron ma'lumotlar bazalarini doimiy monitoring qilish; Ruxsatsiz kirishdan himoya qiluvchi dasturiy vositalarni joriy etish;

Kiberxavflarni aniqlash va ularning oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha tezkor markaz tashkil etish;

Xodimlar o'rtasida axborot xavfsizligi madaniyatini oshirish va muntazam treninglar o'tkazish;

Xalqaro bojxona tashkilotlari bilan axborot almashish va kiberxavfsizlik sohasida hamkorlikni kuchaytirish[2].

Shuningdek, "Yagona interaktiv bojxona axborot tizimi" va "Elektron deklaratsiya" tizimlarida ma'lumotlarni shifrlash, foydalanuvchi autentifikatsiyasi va kirish nazorati mexanizmlari joriy etilgan. Bu tizimlar kiberhujumlarga qarshi samarali himoya choralarini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Bojxona xizmatida kiberxavfsizlikni ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligini baholash maqsadida 2022-yilning ikkinchi choragida O'zbekiston Respublikasida axborot va kiberxavfsizlikni ta'minlash bo'yicha davlat organlari reytingi e'lon qilindi. Ushbu reyting natijalariga ko'ra, Bojxona qo'mitasi 95,1 ball bilan 4–5-pog'onalarni egalladi. Mazkur ko'rsatkich bojxona organlarida kiberxavfsizlik masalalariga alohida e'tibor qaratilayotganini va tizimli ishlar olib borilayotganini tasdiqlaydi.

O'zbekistonda kiberxavfsizlik sohasini huquqiy jihatdan tartibga solish maqsadida 2022-yil 15-aprelda "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi O'RQ–764-son Qonun qabul qilinib, 2022-yil 17-iyuldan kuchga kirdi. Ushbu qonun "muhim axborot infratuzilmasi" tushunchasini belgilab, unga davlat boshqaruvi, davlat xizmatlari, moliya-bank tizimi va bojxona organlari axborot tizimlarini ham kiritadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-apreldagi PQ–153-sonli qarori bilan banklar, to'lov tashkilotlari, ma'lumotlar operatorlari va boshqa muhim subyektlar uchun kiberxavfsizlik bo'yicha majburiyatlar sezilarli darajada kuchaytirildi. Mazkur qarorda kiberhodisalar uchun javobgarlikni oshirish, hodisalarni aniqlash, tekshirish va hisobot berish tartiblarini qat'iylashtirish belgilandi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi "Axborot texnologiyalari yordamida sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurashish

=====

faoliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori orqali banklar, to'lov tashkilotlari, ma'lumotlar operatorlari hamda boshqa muassasalarga kiberxavfsizlik bo'yicha yangi majburiyatlar yuklatildi. Ushbu hujjat kiberjinoyatlarni aniqlash, tekshirish va ularning oldini olish mexanizmlarini kuchaytirishga qaratilgan [3].

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasi bojxona xizmati organlarida kiberxavfsizlikni ta'minlash davlatning axborot suvereniteti, tashqi savdo xavfsizligi va iqtisodiy barqarorligini mustahkamlashda muhim o'rin tutadi. Kiberxavfsizlikni ta'minlash nafaqat texnik himoya choralari majmui, balki mamlakat iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish, xalqaro savdo xavfsizligini ta'minlash hamda fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining davlat organlariga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi Qonuni, O'RQ-764-son, 2022-yil 15-aprel.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kiberxavfsizlikni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori PQ-153-son, 2025-yil 30-aprel.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Axborot texnologiyalari yordamida sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurashish faoliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2018-yil 14-may.